

*Abdulla Qahhor*



# O'G'RI



821.512.133-3	2021/354-2
Q 35	Rahhor, A.
P'g'ri	

T-2019-	406.	28750
---------	------	-------

**Abdulla Qahhor**

# **O'G'RI**

*Hikoyalar*

G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
TOSHKENT – 2019

UO\*K 821.512.133-3

KBK 84 (50\*)6

Q 35

**Qahhor, Abdulla**

O'g'ri: Hikoyalar / A. Qahhor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 40 b.

So'z zargari Abdulla Qahhorning yana bir ko'ngilga yaqin kitobini miriqib o'qish imkoni Sizga muborak bo'lsin, aziz o'quvchi.

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyi, 2019

ISBN 978-9943-5957-3-6

Zanglota AKM

Inventar № 2021/3542



**ABDULLA QAHHOR**



## O'G'RI

### (O'tmishdan)

Otning o'limi – itning bayrami.

*Maqol*

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib, ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi.

Odamlar dod ovozigiga o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qoqoqlaydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql bovar qilmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi.

Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi:

– Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig'lab yubordi.

– Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi...

Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kam-piri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi.

– Yig'lama, yig'lama deyman! Ho'kizing oqposhsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa topiladi.

Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu «xudo yor-laqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lo-zim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Ming-boshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yetmasa! Qobil bobo ham-yonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib, shunday qarorga kelish-di: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradi-gan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi.

– Ha, sigir yo'qoldimi?

– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.

– Ho'kizmi?.. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..

– Bor-u yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...

Amin chinchalog'ini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldi.

– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?

– Ola ho'kiz...

– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?

– Qo'sh mahali...

– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?

– Bisotimda hech narsa yo'q...

– O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog'ini etigining ostiga artib,– suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizingni» deganday bo'lib ketdi.

– Kam bo'lmang, – dedi pulni uzatib, – yana xizmat-ingizdaman.

– Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi cha-qirtiradi.

Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo'ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdasta-gardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpish tovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakki-zinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo'ldi:

– Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi – arbobning iz-zati bo'ladi!

Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.



Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'inlari bo'shshib ketdi, keyin tutaqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi! «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan». «Yaxshilab tushuntirilgan» pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pulni olganidan keyin Qobil boboning baxtiga, «beto'xtov hokimga xabar beraman», demasdan «aminga bor», deb qo'ya qoldi. Amin «ellikboshiga borilsin», dedi.

– Gumoningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib, – kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib, saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi, xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...

– Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab.

– Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu sharti kuzda ma'lum bo'ladi...

## MASTON

Ot munkib ketib o'mgagi bilan shag'alga qadaldi-da, ag'anab, bir necha minutning ichida o'la qoldi. Nima bo'ldi, nima uchun o'ldi, buni tekshirishga sira ehtiyoj bo'lmadi, chunki o'limning sababini tekshirish tirikni o'limdan olib qolish uchungina kerak, xolos, bu bepoyon dashtda esa boshqa tirik ot yo'q edi.

Otning ostida qolgan oyog'ini tortib olishga urinayotgan yoshgina, uzoq yo'l azobidan ham so'limagan juvon o'zidan bir necha qadam nariga tushgan chimmati ostidan chiqib ketgan kaltakesakni ko'rib dod deb yubordi. Ot munkib ketganda egarning ustidan dumbaloq oshib tushgan paranjisiz qiz o'ynoqi kaptarday abjirlik bilan o'zini o'ngarib oldi-da, juvonga yordam bergani shoshildi. Juvon ikkinchi oyog'ini egarga tirab, oyog'ini tortgan edi amirkon mahsisi otning tagida qoldi.

– Qurib ketsin! – dedi u yig'lamsirab. – O'qishing boshingdan ordona qolsin, Maston!.. Qo'y, ey... erimdan qolmayin!..

Maston unga e'tibor qilmay, otni tumshug'idan ko'tarib, uning ochiq qolgan ko'zlariga qaradi. Uning ko'zini kulrang-sapsar parda bosganini ko'rib, qapchib qomatini rostladi-da, ko'z ilg'amaydigan uzoqlarga qaradi. Dasht, dasht! Harorat zarbidan hamma yoq lip-lip etadi. G'irillab turgan issiq dasht shabadasi kalta ko'k kamzul ostidan chiqib turgan etagini pirpiratadi, oftobda qoraygan bo'yniga, chakkasiga ter bilan yopishib, sochlarini tort-qilaydi. U go'yo bu juvonning borligi endi esiga tushgan-day birdan orqasiga burilib qaradi.

– Nima deding, Turg'unoy? – dedi juvonning yoniga tiz cho'kib. – Ering seni shuncha yig'latgani yo'qmi? Joningni shuncha og'ritmasmidi? Ot o'ldi...

Turg'unoy bir irg'ib tushdi, qo'lining og'rig'ini ham unutdi.

– Ot o'ldi?!

– O'ldi... Ot o'ldi...

Maston bir ko'zi otning tagida qolgan xurjinni tortib oldi-da, uning ichidagi oziqni ko'zdan kechirdi. Oziq ot bilan yurganda faqat bir kunga yetar edi. Suv yo'q, suv solingan ko'zacha otning ostida qolib singan.

Maston kalta, ammo yo'g'on ikki o'rim sochini boshiga o'radi-da, xuddi suv kechishga chog'lanayotganday oyog'idagi pishiq ag'darma etikni ko'zdan kechirdi, xurjundagi oziqni olib dasturxon bilan beliga bog'ladi.

Maston necha chaqirim yo'l bosganini va yana necha chaqirim bosish kerakligini bilar edi. Bu yaqin o'rtada voha yo'q. Olg'a bosish har holda orqaga qaytishdan xatarli emas. Orqaga qaytish uchun ko'chma qumlar orasidan yurish kerak. Agar bu qumlar, irg'ayzorlar orasida adashilsa, umr bo'yi yurib ham chiqib ketib bo'lmaydi. Agar shamol qo'zg'alsa, qum tiriklay ko'madi.

Maston otning o'lganini, ko'zachaning singanini, oziqning yo'qligini unutdi-da, o'zini uzoq yo'lga chog'ladi, keyin peshonasini ikki bilagi ustiga qo'yib, yig'lab yotgan Turg'unoyni yelkasidan tortib turg'izdi:

– Yig'lama, Turg'unoy, yig'lama. Yig'i boshni og'ritib, kishini lohas qiladi... Kavush-mahsingni kiy. Sochingni boshingga o'rab, ustidan ro'mol bog'lab ol. Qorong'i tushguncha dashtdan chiqib olmasak bo'lmaydi, hali ko'rdingku, dashtda shundaqa kaltakesaklar ko'p bo'ladi. Bo'!

Turg'unoy o'pkasini tutolmas edi.

Oftob tikkada. Ikki yo'lovchining qisqa soyalari katta-katta tosh, turli dasht o'simliklari ustidan egilib-bukilib borar edi. G'irillab turgan dasht shabadasi badanni kuydirgudek issiq. Yo'l ustidan chiqib qolgan chaqqon kaltake-

saklar o'qdek otilib kavaklarga, tosh oralariga kirib ketadi, ba'zi dadilrog'i uzoqroqqa borib «bu qanaqa odamlar ekan» deganday, boshini ko'tarib, irg'ib chiqqan ko'zlari bilan baqrayib qarab turadi. Shunday paytlarda Maston mumkin qadar Turg'unoyni gapga solib, yo bo'lmasa, diqqatini boshqa narsaga jalb qilib, bu jonivorlarni ko'rsatmaslikka tirishadi.

– Qo'shiq aytsang-chi, Turg'unoy! – dedi Maston bir silkinib, ustidagi yuklarini yaxshiroq o'rnashtirib.

– Ot qoldi. Qancha narsalar... Yana cho'lda qoldik... Nima bo'lishimizni bilmaymiz... qanday yuragingga sig'adi ashula!..

– Qolgan narsa qoldi, bo'lgan ish bo'ldi. Yana o'nta Turg'unoy bilan o'nta Maston xafa bo'lgani bilan qolgan narsalar orqamizdan ergashib kelmaydi. Nima bo'lishimiz o'zimizning qo'limizda.

Oftob g'arbga yonboshlaganda ikki yo'lovchi dashtdan chiqib tepalikka yo'l oldi. Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'ning azobidan ortiqroq bo'ldi. Maston yuki og'ir aravani tortib borayotgan otday oyoqlarini tirab yuqoriga intilar, Turg'unoy esa engashib, ikki kaftini tizzasiga qo'yib zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlar edi.

– O, Maston, – dedi Turg'unoy, – erim miyamda danak chaqsa ham uyda o'tirganim bir davlat edi...

Undan ikki-uch qadam balandda ketayotgan Maston to'xtadi, belidagi dasturxonni yechib bitta non oldi va sindirib yarimtasini yana joyiga qo'ydi-da, qolgan yarmini ikki bo'lib bir to'g'ramini Turg'unoyga uzatdi. Turg'unoy non bo'lgani uchungina qo'l uzatdi, boshqa hech narsa hozir uni qo'l ko'tarishga majbur qilolmas edi. U nonni ikki yamlab yutdi-da, yana umidvor bo'lib Mastonga qaradi.

– Shu bas, nonimiz kam, – dedi Maston. – Bundan tashqari nonni ko'p yesak chanqaymiz. Suv yo'q. Ana u

qirga yetmaguncha suvning yuzini ko'rmaymiz. Suvsizlikni tuya ko'taradi.

– Shu nonga bir narsa tekkan. Kaltakesak tushgan ovqat shirin bo'ladi deyishadi, yo kaltakesak tegdimikin?

Maston kuldi.

– Kaltakesak tushgan ovqat yeganmisan?

– Yo'q, eshitganman. Ammamning qizi Abdurazzoq do'ppifurushga tushgan edi... Bunga o'n yilcha bo'ldi. Do'ppifurush ellikka borib qolgan odam. Qiz – g'unchadekkina. U vaqtda hamma ixtiyor ota-onada edi-da... Hech ilojini qilolmagandan keyin «pes bo'lsam qo'yib yuboradi», deb ataylab ovqatiga kaltakesak solib yegan ekan. Kaltakesak yesa odam pes bo'ladi, deb eshitgan ekan...

Maston yana yo'lga tushgani hozirlik ko'ra boshladi. Buni ko'rib Turg'unoy yig'lamsiradi. Maston uni qo'lidan ushlab tortdi va turg'azib qo'ydi.

– Qo'ling xuddi yigitning qo'liga o'xshaydi-ya, Maston,– dedi Turg'unoy ancha yurilgandan keyin, – biram qattiq... Erga tegsang shu qo'ling tufayli ko'p dashnom yeysan-da.

– Avvali shuki, men erga tekkanimda qo'limni yashirmayman, undan keyin dashnom beradigan erga tegmayman... Yaxshi er-xotin bo'lish qo'lining yumshoq-qattiqligiga ham qaramas ekan-ku! Mana sen...qo'ling ipakday...

– Otam o'lmaganda men bu alvastiga bir kun ham xotin bo'lmas edim. Otam o'ldi, darmonim quridi. Undan chiqib qayoqqa, kimnikiga boraman, kimning uyiga sig'ar edim. Ikki ko'zing ko'r, qo'l-oyog'ing shol bo'lsa ham erkak bo'l ekan-da... Bu alvastidan chiqsam ko'chada qolar edim... Birinchi kechasi yangalar «bo'yniga tilla uzuk qo'y», deyishgan edi. Ertasiga shunday qilganimga ham pushaymon bo'ldim: o'zim ne ahvolda, xuddi um-

rim xazon bo'lganday yig'lagim kelib arang o'zimni tutib o'tiribman-u, tepamga kelib, «va-xa-xa-xa... aldadim, endi tilla uzuk olib bermayman», deydi. E o'l, so'xtasi sovuq, dedim ichimda. Sen qizsan, baxtdan umidvorsan. Men ham qiz vaqtimda shunday edim. Har kuni ertaning bu kundan yaxshi bo'lishi umidi bilan kishi qariganini ham bilmay qolar...

Turg'unoyning o'pkasi to'lib gapdan to'xtadi. U mast kishiday gandraklab borar edi. Maston uni qo'ltiqlab oldi.

– Biz yorug' dunyoni ko'rish uchun tug'ilganmiz, Turg'unoy! – dedi Maston. – Biz tovuq emasmizki, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak. Tovuq bilan odam orasida qancha farq bo'lsa, bu ikki jonivorning muhabbati orasida ham shuncha farq bor. Nega biz choldan yoki yaxshi ko'rmagan yigitdan tug'ar ekanmiz? Yaxshi ko'rganimizdan tug'mas ekanmiz, u bolaning tug'ilmagani yaxshiroq! «Qizsan, baxtdan umidvorsan!» deysan. Agar men qizligim uchun baxtdan umidvor bo'lsam baxtsizligim bo'ladi. U vaqtda men umrni tikib oshiq otgan bo'laman. Chuv tushdimmi – umr ketdi!.. Yo'q, Turg'unoy, menimcha, baxtni erdan izlashning o'zi baxtsizlikning boshlanishidir. Bizda xotinlar erga shunday bog'lanib qoladi, shuncha baxtni undan izlaydiki, er o'lsa go'yo baxtining kaliti uning cho'ntagida ketgan bo'ladi, erining o'lganiga emas, baxtdan umidi uzilganiga yig'laydi. Er o'lmasdan undan yuz o'girsam ham xotin bundan kam yig'lamaydi. Bizda ko'p xotinlar shu kalitni yo'qotmaslik, ana shunday ko'z yoshi to'kmaslik uchun erga cho'ri, qul bo'lib yashaydi, kechagi kampirning aytganicha, «Erning ko'ngli tosh bo'ladi, uni faqat ko'z yoshi yumshatadi», deydi...

Qorong'i tushdi. Uzoqda qop-qorayib, yarim osmonni to'sib turgan adirning ustida, ufqda o'tli iz qoldi-

rib yulduzlar uchadi. To adirning etagiga yetguncha Turg'unoyning kavushi ishdan chiqdi, adirga mahsichan chiqishga to'g'ri keldi. Yo'l adirning eng yotiq yeridan tushgan bo'lsa ham, Turg'unoy tizzasini ushlab zo'rg'a qadam bosardi. Maston uning qo'lidagi tugunchani oldida, Turg'unoyni oldinga o'tkazdi, chunki uning har qadamda yiqilishiga, yiqilganda to adirning etagigacha yumalab ketishiga ko'zi yetar edi. Turg'unoy oxiri bosgan oyog'ini ko'tara olmay to'xtab, Mastonning yelkasiga boshini qo'ydi va piq-piq yig'ladi.

– Sonim toldi... o'ligim shu adirlarda qoladi...– dedi, keyin tizzasini bukildi-yu, yiqildi. Bu charchagan, holdan toygan kishining emas, o'limga taslim bo'lgan kishining yiqilishi edi.

– Turg'unoy,– dedi Maston,– shu yerda qoladigan bo'lsak bo'riga yem bo'lamiz!

Bu haqiqat edi. Bu adirlar bundan bir necha chaqirim uzoqdagi vodiy aholisiga «Cho'gi bo'ri» nomi bilan mashhur, buni Turg'unoy ham eshitgan, ammo o'zining o'sha «Cho'gi bo'ri»da ekanini bilmas edi, buni eshitgandan so'ng ne mashaqqat bilan o'rnidan turib yo'lga tushdi. Maston uni orqasidan suyab bordi. Uning hamma og'irligi deyarli Mastonga tushar, u faqat qadam bosar edi, xolos. Maston ilang-bilang yo'lni qoldirib, mo'ljallagan tepalikka qarab tikka yo'l soldi.

Yarim yo'lga yetganda uzoqda qop-qorayib gavidalanib turgan adir tomondan «quuq» degan tovush eshitildi. Unga yaqindan, taxminan shu pastda qolib borayotgan tepalikdan javob bo'ldi, keyin yana qayerdandir, uzoqdan ham shu tovush eshitildi. Bu «Cho'gi bo'ri»ning tungi «bulbulari» edi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi, so'nggilari esa uni vahimaga soldi.

– Xudo ursin agar... boyo'g'li! – dedi titroqli nafas olib.

Maston esa boshqa tovushni, uzoqdan eshitar-eshitilmas kelib turgan tovush – bo‘rilarning ulishini tinglab borar edi.

– Quloq sol, – dedi Maston sekin pichirlab,– bo‘ri... Agar mana shu cho‘qqiga chiqib olmasak boyo‘g‘li sayrasa ham o‘lamiz, sayramasa ham. Avvali bu boyo‘g‘li emas, haqqush, qo‘rqma. Bo‘ridan qo‘rqish kerak.

Ilang-bilang yo‘l pastda qolib ketdi. Qorong‘ida ham u g‘ira-shira oqarishib ko‘rinar edi. Maston to‘xtadi va qomatini rostlab olg‘a qaradi. Yana bir necha metr yo‘l qolgan edi. Turg‘unoy shu yerga o‘zini tashlab, hayal o‘tmay uyquga ketdi...

Maston uning yonida o‘tirib, kiprik qoqmay tong otirdi, ufq qizara boshlaganda endi pinakka ketgan edi, Turg‘unoyning qattiq yo‘talidan uyg‘ondi.

– Tursang-chi, muncha uxlaysan! – dedi Turg‘unoy nafasini rostlab, – tur!

Maston ko‘zini ochib, yana yumdi. Turg‘unoy yana uzoq yo‘taldi, keyin yig‘ladi. Maston uyg‘ongandan keyin uning yelkasiga boshini qo‘yib yana yo‘taldi, yana yig‘ladi. Maston uning boshini silab yupatdi.

– Yig‘lama, Turg‘unoy, yig‘lama! Ana ko‘rdingmi, – dedi uzoqdagi tuman ichida kaptarrang bo‘lib turgan vodiyni ko‘rsatib, – yetdik. Bizning xo‘jalik... Bizning qishloq.

– Oyog‘im... a‘zoyi badanim og‘riydi...

– Oyog‘ing... yo‘lga tushsak yozilib ketadi. Men pastga tushib qaray-chi, suv bo‘lsa nonushta qilamiz.

Maston pastga tushib ketdi, so‘qmoqqa yetganida Turg‘unoyning ustma-ust chaqirgan tovushini eshitib qaytdi. Turg‘unoy pastroq tushgan, dasht tomonni ko‘rsatib, bor tovushi bilan qichqirar edi. Maston yuqoriroqqa chiqib dasht tomonga qaradi. Ufqdan berida o‘rgimchakday



oʻrmlab arava kelar edi. Maston «yashasin» deb qichqirib chapak chaldi. Turgʻunoy har qadamda bir dam olib, yuz yoʻtalib tushib keldi. Ikki yoʻlovchi muyulishdagi tepalikning soyasida toshning ustida oʻtirib, dasht tomondan kelayotgan aravani kutishar edi. Yoʻtalning azob berishiga qaramasdan Turgʻunoyning chehrasi ochiq, ishtaha bilan non yer edi. Ammo uni gʻam bosdi: aravada hech kim boʻlmasa, bitta aravakashning oʻzi boʻlsa goʻrga-ya, boʻlmasa ish chatoq...

– Erkaklar boʻlsa, shoʻrim qursin...

– Erkak desa sening koʻz oldingga... boshqa narsa kelmaydi! – dedi Maston achchigʻi kelib.

– Boʻlmasa-chi? – dedi Turgʻunoy etagi bilan burnini artib. – Boshqa nima... erkak senga osh quyib icharmidi? Odam mushuk emaski, yilda bir martaba mov boʻlsa...

Turgʻunoy Mastonning koʻp gaplariga ishongan, koʻngan, rozi boʻlmaganda ham hech boʻlmasa, indamay qoʻya qolgan edi, ammo bu toʻgʻrida kelishmadi. U ikki jins, xususan, birinchi koʻrishgan erkak bilan xotin orasida gapirishgani boshqa hech qanday gap boʻlishi mumkin emas, deb turib oldi. Munozara uzoq, to arava yetib kelguncha davom etdi. Maston aravani qarshilagani yoʻl boʻyiga tushdi. Aravakash aravada oʻtirgan ikki kishiga qayrilib qarab qamchining sopi bilan Mastonni koʻrsatdi. Aravadagi ikki yigit choʻkkalab boʻynini choʻzib qaradi... Eng nishab yerga kelganda aravakash otdan, u ikki yigit aravadan tushib piyoda yurishdi.

– Ot sizlarnikimi? – dedi yigitlardan biri dasht tomonni koʻrsatib.

Maston bosh irgʻatdi. Ular kelib toʻxtagandan soʻng Maston soʻrashgani qoʻl uzatdi va ikki ogʻiz soʻz bilan voqeani bayon qildi. Yigitlar bir-birlariga qarashdi.

– Biz yarim kechasi yo‘lga chiqib, saharda o‘sha yerdan o‘tdik, – dedi yigitlardan biri, – otni bo‘ri yegan... hayron bo‘ldik... Bir yoqda paranji yotibdi. Xo‘p jon saqlabsizlar-da! Azamatlar!

Narida toshning ustida uvolgina bo‘lib o‘tirgan Turg‘unoy o‘ylar edi: «Mana hozir bu gaplarning hammasi tugaydi, keyin... keyin gap qolmaydi...»

Aravadagi bir necha bog‘ beda ustida o‘lgan otning abzallari yotar edi. Hamma aravaga chiqdi.

Turg‘unoy aravaning ketida, bedalar ustida cho‘nqayib, og‘zini yengi bilan qoplab o‘tirar va erkaklarning avzoyiga razm solar edi. Mastonga aravaning oldidan joy berishdi. Arava jo‘nadi. U tepalikdan oshib, g‘ichirlay-g‘ichirlay pastga tushib ketdi. Pastga tushganda yigitlardan biri dasturxon yozib, yo‘lga olgan oziqlarini o‘rtaga qo‘ydi. Yana biri bedaning ostidan ikkita shishani olib yaxna choy quydi. Turg‘unoy yovvoyi quyunday har bir so‘z, har bir harakatdan hurkib o‘tirar va to Maston olib bermaguncha qo‘l uzatib bir narsa olmas edi.

Arava burilib ikki adir orasiga kirishi bilan «Cho‘gi bo‘ri» ko‘zdan yo‘qoldi. Shu bilan uning vahimasi ham unutildi. Gap mavzudan mavzuga ko‘char edi. Suhbatda Mastonning salmog‘i tobora ortmoqda edi. Ilgari «singlim» deb turgan yigitlar sal o‘tmay «opa» deydigan bo‘lishdi. Maston o‘tgan yili uch yuz yigirma to‘qqiz so‘m pul, yuz ellik olti pud bug‘doy olganini aytganda yigitlardan biri qizarib ketdi. Xususan, aravakash «bizning Yo‘lchiboy ham chakki emas: sakson pud bug‘doy bilan bir yuz to‘qson so‘m pulning hammasini o‘zi yolg‘iz oldi», deb piching otganda, u yigit terlab ketib, o‘zini oqlay boshladi.

– Yo‘q... biz... bizning takbirchi...

– Takbirchi emas, tabelchi, – dedi Maston.

– Ha... tabelchi... o‘zi chatoq. Men hammasi bo‘lib... progul qilgan bo‘lsam ham... xotin taloq o‘zi yot unsur...

Arava g‘ijirlab borar, gap mavzudan mavzuga ko‘char, Turg‘unoy gapga aralasholmay, bedalar ichida bir bog‘ bedaday silkinib borar edi.

1934-yil

## MIRZO

Mezbon uzoq yo‘ldan kelgan mehmonni ochiq chehra bilan qarshi olmasa, bir piyola choyini darig‘ tutsa, biron harakati yoki so‘zdagi ohangi bilan «nega kelding, yo‘qlab turgan edimmi?» degan ma‘noni bildirsa, mehmonning qay holatda qolishini tasavvur qila olasizmi? Agar mehmon mezbon oilasida biron janjal bo‘layotgani ustidan chiqsa, bundan ham yomon, o‘ng‘aysiz holatda qoladi. Mezbon uning uchun jonini fido qilsa ham, o‘sha janjalning natijasi bo‘ladigan bir necha minutlik jimlik yoki asabiy yuzda aks etgan soxta tabassum hammasini yuvib ketadi.

Boqi mirzo bir necha yildan beri ko‘rishmagan qarindoshinikiga uzoq yo‘ldan mehmonga kelib, janjal ustidan chiqdi. Kechki payt edi. U bukchayib, mirzolik kasbining serdaromad kunlaridan xotira qolgan kumush naqshli hasasini do‘qillatib eshikdan kirganida mezbonlar (aka-uka) yengil kiyimda baland ayvonning bahavo yeriga qo‘yilgan stolning ikki yog‘ida xomush o‘tirishar edi. Stolning ustida donalari sochilgan shaxmat taxtasi, bir chetda patefon. Mirzo ariq bo‘yiga kelganda ham uni hech kim ko‘rmadi. Ayvonning bir chetida kachalkada o‘tirgan yoshgina juvon irg‘ib o‘rnidan turdi-da, patefonning oldiga kelib, uning membramini ko‘rdi.

– Zardangizni patefonga qilasizmi, qarang, membramini yordingiz! – dedi va patefonni ko‘tarayotib mirzoga ko‘zi tushdi.

– Assalomu alaykum, – dedi mirzo.

Mezbonlar dilsiyohlik kayfiyatini yashirishga urinishdi, ammo yotar mahaligacha bu bir necha martaba yuzaga chiqdi va oqibat, mehmonning ko‘ngliga bo‘lak gaplar kelmasin uchun, ikki orada o‘tgan gapni aytishga majbur bo‘lishdi. Keyindan ma‘lum bo‘ldiki, bu Boqi mirzoning bu yerga kelishdan kuzatgan muddaosiga daxldor janjal ekan.

Boqi mirzo shu nom bilan o‘z shahrida ma‘lum kishi edi. U Nikolay zamonasida shirkatlarda, fermalarda mirzolik qilib, o‘z xizmatini manzur qilgan edi. Inqilobga yaqin bir hissador shirkatga oz sarmoya bilan bo‘lsa ham sherik bo‘ldi va bir-ikki yil qattiqchilikni ustiga olib mustaqil bir ish boshlashga niyat qilganida inqilob niyatiga yetkazmadi, shuning uchun inqilobdan koyidi va o‘zini chetga tortib, qolgan uch-to‘rt kunlik umrini qanday qilib bo‘lsa ham o‘tkazish ko‘yiga tushdi: har kimlarga turli arizalar, duoyi salomlar yozib berishni kasb qilib oldi. Ammo uchto‘rt kunlik umrda bir sababi tirikchilik deb boshlagan bu ish unga boylik va‘da qila boshladi. Yangi hukumatga arz-dodi ko‘p bo‘lgan xaloyiq uning uyidan uzilmas, u bir kunlik daromadini o‘n kun yer edi. Nomi o‘sib ketgan Boqi mirzo ko‘p vaqt o‘tmay «Inobatli mirzo» nomi bilan bosh ko‘tardi. Inobatli mirzo desa shaharning to‘rt dahasi bilar edi, chunki u yozgan arizalarning ko‘pchiligi «mahkamalar qoshida inobatga o‘tar», shuning uchun hali bu mahkamalarning siriga tushunib yetmagan bir mahsido‘z hamma sirni ariza yozish tartibida gumon qilib, unga «Inobatli mirzo», deb nom qo‘ygan edi.

Vaqt kelib bu odamga nima uchun «inobatli» sifati berilgani kishilarning esidan chiqib ketdi. Mirzo arizalar va o'qishga ketgan farzandlarga duoyi salomlar yozish bilan kun o'tkaza berdi. Ammo zamon o'tgan sayin uning xizmatiga muhtoj kishilar va shu bilan birga daromad ham kamaya berdi. Oqibat shu darajaga yetdiki, mirzo shahar pochtaxonalarining biriga muttasil qatnashga va har kimning qo'liga qarab, adres yozib berish va blanka to'ldirishga o'z xizmatini taqdim qilishga majbur bo'ldi. Biroq bu kasbdan putur ketdi: mirzo ilgari bir kunlik daromadini o'n kun yesa, endi o'n kunlik daromadi bir kunga ham yetmas edi. Endilikda hech oila yo'qki, unda bir yoki bir necha savodli odam bo'lmasin. Mana shuning uchun mirzo, kunlarning birida, kampir bilan maslahat qilib, boshqa kun o'tadiganroq shaharga ko'chish rejasini tuzdi va bu yerga shu reja yuzasidan shahardagi sharoitni o'rganish uchun kelgan edi.

Ertasi hordiq kuni edi. Ertalab choydan so'ng mehmonning oldida munozara yana yangilandi. Bulardan biri Samarqand ta'lim-tarbiya akademiyasidagi bir ilmiy xodimning tez savod chiqarish to'g'risidagi tajribasini quvvatlar, ikkinchisi Toshkentdagi ta'lim-tarbiya ilmiy-tekshirish institutining metodi to'g'risida so'zlab, unga so'z bermas edi.

– Bola albatta bundan mustasno, – der edi biri, – lekin katta odamni o'n besh kunda savodli qilaman...

– Sen o'n besh kunda savodini chiqarsang, men o'n kunda chiqaraman.

– Xo'p, ikki odam top, ko'ramiz!

– Sen top!

Savodsiz odam topish mojarosi avvalgi mojarodan ham ortib tushdi. Inobatli mirzoning zardasi qaynab ketdi:

– Xayr, mana men topay, qo'yinglar, – dedi Mirzo, kechqurun samovarga chiqdi, ikkita choynak choy ichdi.

Samovarchi uchinchi choynak choyni keltirib qo‘yganida, mirzo sekin undan «savodlimisan?» deb so‘ragan edi, samovarchi zaharxanda qilib, «sizni uch yil o‘qitishga qudratim yetadi», dedi.

Bundan bir yil burun shu choyxonaning devoriy gazetasida «So‘nggi savodsiz» sarlavhasi bilan bir maqola bosilgan va bunda shu mahalladagi so‘nggi bir savodsizni chandilgan, kalaka qilingan, shundan beri «savodingiz bormi?» degan so‘roq bu mahallada «aqlingiz rasomi?» deganday haqorat bo‘lib tushadigan bo‘lib qolgan edi. Mirzo samovarchining g‘ashi kelganiga tushunolmay qaytib ketdi. Mirzo savodsiz odam qidirib uch-to‘rt kun ichidayoq bu shahardagi sharoitni bila qoldi: «Chakki kelgan ekanman, bekor chiqimdor bo‘ldim», dedi. Uning mo‘ljali kelar hordiq ertasi qaytish edi.

U hordiq oqshomi hammomga tushdi-yu, xodimgarlardan biriga haligi so‘rog‘ini berdi. Xodimgar hammomda berilgan bu savolga ajablendi-yu, jo‘rttaga: «G‘irt omiman», dedi. Mirzo sevinib, uning birorta o‘ziga o‘xshagan ulfati bilan ertaga borib bir piyola choy ichib qaytishini iltimos qildi, adres berdi.

Ertasi kuniga mezbonlar bir talay mehmon chaqirishgan edi. Ikki xodimgar mehmondorchilik ustidan chiqdi. Mezbonlardan biri mehmonlarga voqeani bayon qildi. Voqeadan xabardor bo‘lgan xodimgarlar tipirchilab qolishdi. Mehmonlardan biri yosh bolalarni to‘plab, she‘r o‘qib berayotgan bir juvonga ta‘na qildi:

– Musobaqada ko‘z bo‘yash bilan yutgan ekansiz-da, To‘tixon!..

Juvon yugurib keldi.

– Nega? Nima qipti?

– Mana, ikki savodsiz. Mahallamda sakkiz yashardan qirq besh yashargacha hammasi savodli, degan edingiz-ku!

Juvon xodimgarlarga qaradi va so‘radi:

– Shu mahallalikmisizlar yo boshqa mahalladan keldinglarmi?

– Yo‘q, shu mahallalikmiz?

– Savodsizmisizlar?

– G‘irt omimiz, opa.

Juvon qizardi.

Juvonning eri ikkala xodimgarning o‘rtasida o‘tirar edi. U xodimgarlarning savodsiz ekaniga ishonmadi-da, sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi, bir taxta qog‘oz so‘rab olib qizil qalam bilan yirik-yirik qilib yozdi:

«Qosimjon, hammomga tushganimda butun kiyimlarimni o‘g‘irlagan – shu ikkovi».

U xatni yozib bo‘lib, endi Qosimjonga uzatmoqchi bo‘lganida, ikkala xodimgar baravar uning qo‘liga tarmashdi.

– Nima deyayotibsiz?! – dedi biri ko‘zi olayib.

– Og‘zingizga qarab gapiring! – dedi ikkinchisi undan ham battar darg‘azab bo‘lib, – siz aytgan odam biz emas...

Bu orada nima sir o‘tganidan bexabar bo‘lgan mehmonlar hayron edi. Juvonning eri xatni baland ovoz bilan hammaga o‘qib bergandan keyin qiyqiriq kulgi bo‘lib ketdi.

Inobatli mirzo gangib qoldi.

– Olib kelgan odamlaringiz savodli chiqib qoldi-ku, – dedi mezbonlardan biri mirzoning yelkasiga shappalab.

Mirzoning ko‘zlari olayib, xodimgarlarga qaradi.

– Nega odamni laqillatasizlar?!.. – dedi va etagini qoqib o‘rnidan turib ketdi.

Inobatli mirzo saharda poyezdga chiqdi.

1935-yil

## IKKI YORTI – BIR BUTUN

Kamolxonov iltimosiga «xo'p» degan javobni kutib, savol alomatiday gajak bo'lib turganida telefon jiringlab qoldi. Bo'lim mudiri Sulaymonov go'shakni oldi.

– Labbay... ha...ha...a? Vah-hah-ha-ha...

Negadir Kamolxonov ham kuldi va qomatini rostlab, kursiga sekin o'tirdi.

– Albatta, albatta,– dedi Sulaymonov jiddiy qiyofada, – masalan: baliq ko'p yaxshi narsa – qovurilsa qanday shirin bo'ladi! Biroq qovundan baliq hidi kelsa, ko'nglingiz ayniydi.

Kamolxonov bu so'zni kulgi uchun aytilgan gumon qilgan bo'lsa kerak, o'zini qattiq kulgiga chog'lagan edi, Sulaymonovning kulmaganini ko'rib, o'zini jiddiy ko'rsatish uchun qoshlarini chimirdi, ustki labini so'ra boshladi.

– Qachon? – dedi Sulaymonov achchig'i kelib, – o'zingiz bilasiz-ku, birodar, mingta xushomadgo'yni ho'l olib borib, quruq olib kelaman-a! Darrov taniyman-da. Otam sigirning sersut yoki kamsutligini ma'rashidan bilar edi. Yo'q, yo'q, ishoning! Kecha hammomga kirgani bilet olayotsam, kassir «sovun kerak emasmi?» deydi. Bu nima degani? Men, birodar, yerning tagida ilon qimirlasa bilaman.

Sulaymonov shu gapni aytib, Kamolxonovga bir qarab qo'ydi: shu qarash bilan faqat «ko'rdingmi, men shunday odamman», demoqchi edi, xolos. Kamolxonov o'zidan hadixsirab, jinday qizardi, ammo sirini boy bermadi.

Sulaymonov go'shakni qo'yib, tantanali ravishda tugmachani bosdi. Kotiba kirdi.

– Ayting, ovqat keltirilsin? – dedi Sulaymonov va Kamolxonovga murojaat qildi. – Endi bo'ladigan gap



shuki, birodar, bu hojatingizni chiqarish ko'p qiyin, ko'p qiyin, birodar.

Kamolxonov iljaydi.

– Bilaman, o'rtoq Sulaymonov, faqat qiyin bo'lgani uchungina sizning oldingizga kirdim. Siz endi, qiyin deb... kamtarlik qilayotibsiz-da. Eshakni yashirsangiz hangrab sharmanda qiladi. Tag'in ko'nglingizga kelmasin, misol uchun aytayotibman, azbaroyi ochiqligim uchun... Siz aravaning gupchagini yerga ko'msangiz, xudo ursin, bodring ko'karib chiqadi!

Sulaymonov juda iyib ketdi, labidagi mamnuniyat tabassumini yashirish uchun o'ng qo'li bilan so'l mo'ylovini silay boshladi. Ovqat keltirildi. Sulaymonov bedananing suvxo'rligiday kichkina xurmachani oldiga tortdi va bo'lak gap topolmay, qaymoqning ta'rifini qildi:

– Bir shaharning qaymog'i boshqa shaharning qaymog'idan farq qiladi-da?

– Ha, albatta!

– Ha, barakalla! Qaymoqni bir yalab, qaysi shaharning qaymog'i ekanini ayta olasizmi? Men darrov aytaman. Bay-bay... men yegan qaymoqlarni ariq qilib oqizsangiz hech qanday to'g'on turish bermaydi. Shuning uchun qaymoqning yaxshi-yomonini darrov ajrataman. Mana buningday qaymoqni umrimda yegan emasman. Ko'ring-a, ajoyib!

Sulaymonov non bilan qoshiq uzatdi. Kamolxonov taraddudlanib qoldi: qaymoqdan masalan, bir qoshiq yemak xushomadgo'ylikka kirmasmikin?

Telefon jiringladi. Sulaymonov go'shakni oldi. Kamolxonov jilmaydi va nazokat bilan nonga qaymoq surtib bir tishladi. Ajab, shunday maqtalgan qaymoq qatiqning mazasini beradi! Qatiq bo'lganda ham qanday – achigan qatiq! Kamolxonov nonni bir iloj qilib yedi va mazza qilganiga ishora qilib, bosh chayqadi.

– Qalay? – dedi Sulaymonov go‘shakni qo‘yib, – umringizda shunday qaymoq yeganmisiz?

– Haqiqatan... Sigirda bir gap bo‘lsa kerak. Men eng yaxshi qaymoqni Marg‘ilonda yegan edim, buning oldida uni un atalangan sut desa bo‘ladi. Xushbo‘yiligini ayting...

Sulaymonov qaymoqdan bir qoshiq olib ichdi-da, birdan afti burushdi, tuflagani joy izladi, tufladi.

– E, o‘lmabsiz, – dedi u og‘zini artib, – axir bu qatiq-ku!

Kamolxonov bir irg‘ib tushdi, gangidi:

– Yo‘g‘-e, rostdanmi? – dedi shoshib va qoshiqdagi yuq-ni yalab uzoq ta‘mini oldi, – haqiqatan, qatiqqa o‘xshaydi.

– Qatiqning o‘zi! Puf... Isini qarang, achigan qatiq!

– Darhaqiqat, achigan qatiq, – dedi Kamolxonov va yana yalab ko‘rdi, – yo‘q, buzilgan qaymoqdir. Men hali betini yegan ekanman-da. Yaxshi qatiqning beti qaymoq-day bo‘ladi-ku!

Kabinetga ikki kishi kirdi. Kamolxonov o‘rnidan turdi.

– Endi men ishni boshlay beraymi?

– Va‘da berib ustidan chiqmasam to‘g‘ri kelmaydi-da.

– Va‘da bersangiz bas, qilmasangiz ham mayli.

Kamolxonov oyog‘ining uchida yurib chiqib ketdi. Idora xizmatchilarining bir majlisida Sulaymonovni rosa sulaytirishdi. Kamolxonov kim nima desa, «To‘g‘ri!» deb chapak chalar edi.

1936-yil

## SAN‘ATKOR

Konsert odatdagicha, «navbatdagi nomerimizda... Kelganlaringga rahmat, o‘rtoqlar» bilan tamom bo‘ldi. Nomi chiqqan ashulachi – san‘atkordan boshqa hamma xursand bo‘lib tarqaldi. San‘atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga

chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi. Traktorist tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, «chorzarb» qayoqda, traktorist qayoqda-yu, ashulachi qayoqda!

San'atkor uyiga ketgani izvoshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: «Hech bo'lmasa, aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt» emish! Nimasini bilmayman, nimasi to'g'ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas, formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda, hech kim meni og'ziga ham olmadi. Endi bir traktorist tanqid qililar emish!..

San'atkor izvoshchini hayron qoldirib, o'zidan-o'zi g'uldirab borar edi. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos. Unga turib-turib nash'a qilar edi: «Ashulani mexaylistik aytar emishman! Tovushim yomon bo'lsa, nega plastinkaga oldi? Tanqid deganiga endi bu kishining ham tanqid qilgilari kelipti... Amali traktorist... Obbo!..»

– O'qishga bordingizmi? – dedi xizmatchiga qovog'ini solib.

– Bordim... – Xizmatchi ikki haftadan beri savod maktabida o'qir edi.

– Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz desa alam qilmaydimi? – dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, – «labingdan bo'lsa olsam, ey, shakarlab», deganim u kishiga yoqmapti, «bo'lsa» emas, «bo'sa» emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar «bo'sa, bo'masa» deydi. Artist kulturniy odam – gapni adabiy qilib aytadi – «bo'lsa, bo'lmasa», deydi. Pojarni «gugurtni yerga tashlamang»,

dedi, rejissorimiz esa «gugurtning yerga tashamang», dedi. Qanday chiroylik! Pojarnimi, pojarningmi? Shoshma, nima uchun pojarni? Pojarni, albatta! Rejissorimiz juda kulturniy odam. Odam degan mana shunday bo'lsa, urishsa ham xafa bo'lmaydi kishi – ikki gapning birida «ta'bir joiz ko'rilsa», deb turadi. Bu traktorist menga shuncha dashnom berib, ko'ngil uchun bir marta «ta'bir joiz ko'rilsa», demadi.

Xizmatchi daftar-qalam keltirib, san'atkorning oldiga qo'ydi.

– «J» ning kattasi qanday yozilar edi? Domlamiz bir kuni ko'rsatgan edi, esimda qolmapti.

San'atkorning jahli chiqdi:

– Endi «J»ga keldingizmi? Barjom deganda yoziladi. Kechagi barjom og'zi ochiq qolipti, gazi chiqqandan keyin bir pulga qimmat. Siz ham dunyoga kelib kulturniy bo'lsangizchi!.. Burningiz terladi, arting, ta'bir joiz ko'rilsa!

San'atkor o'rnidan turib yotoqqa kirib ketdi.

– Yotasizmi? – dedi xizmatchi narigi uydan.

– Nima edi?

– «J»ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?

– Kichigini yozib, qattiqroq o'qing!

San'atkor yechinib ko'rpaga kirdi. Xizmatchi chiroqni o'chirib chiqdi. San'atkor ko'zini yumdi, ko'ziga g'irashira qorong'i zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko'rindi. Bular ichida eng kattasi traktoristning kallasi, u iljayar edi.

– Afting qursin! – dedi san'atkor va narigi yonboshiga ag'darildi.

Hayal o'tmay uyquga ketib xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: «Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...»

*1936-yil*

## ADABIYOT MUALLIMI

O'zining aytishiga ko'ra, «nafis adabiyot muallimi» o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi – boshini silkiydi, pishqiradi.

– Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi og'ilning eshigini qattiq yopib. – Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyay edi.

– Hayvon! – dedi Baqoyev,– bu sigirni sotib, puliga cho'chqa olish kerak!

– Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas,– dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

– Nima uchun? Taqiq qilinganmi? Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri, mumkin emas... albatta, mumkin emas...

– Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

– Siz uyda ekansiz, bilsam daftarimni olib kelar ekanman... esizgina...

O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi – sigir, uning qulog'idagi ko'm-ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi.

– Texnikumdan rabfakka o'tibsan deb eshitdim, rostmi? – dedi. – Hmm... yaxshi qilibsan. Rabfakka o't, deb men aytib edim, shekilli? Hmm... Auff, zarda bo'libman... Rabfak yaxshi. Men bir borgan edim. Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum – bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Biroz jim qolishdi.

– Boqijon aka, -- dedi qiz uyalibroq, -- bir narsani sizdan so‘ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning «Uyqu istagi»ni o‘qidik, go‘dakni o‘ldirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da‘vogar go‘dakning onasi – Rahima bo‘ladi, qoralovchi – Sharifjon. Sudyalar ham bo‘ladi. Men qizni oqlab, butun gunohni uning xo‘jayiniga, yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo‘ymoqchiman. Mana shu... Shuni yozdim. Shu to‘g‘rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev o‘ylab turib so‘radi:

– Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Haki-mov? Ahmoq odam! O‘z ustida ishlamaydi. Savol alomati hamma vaqt «mi» dan keyin qo‘yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko‘tarib kirdi. Hamida irg‘ib tu-rib, samovarni opasining qo‘lidan oldi va stolga qo‘ydi. U homilador xotiniga samovar ko‘tartirib, qarab o‘tirgan pochchasidan o‘pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O‘rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to‘rt piyola choy ichdi va terladi.

– Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, -- dedi yuzidagi terni artib. -- Hmm... soqol ham o‘sipti, sarta-rosh bo‘lmasa, odamlar maymun bo‘lib ketar edi. Maymun juni to‘kilib, odam bo‘lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor...

– Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, -- dedi qiz. -- Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so‘radi.

– Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya‘ni... hmm... Mukarram, tovuqqa moyak

qo‘ydingmi? Qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonivor yo‘q – moyak qo‘ysang tug‘adi! Nima uchun moyak qo‘ysang tug‘adi? Xo‘roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya! Biologiya o‘qiyisizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o‘qiganini, bu o‘qish yilida yana nimalar o‘tilajagini so‘zlab berdi va o‘zining oqlash nutqida fiziologik asoslar ham ko‘rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so‘zni Chexov ustiga burdi.

– Hmm... – dedi Baqoyev, – Chexov to‘g‘risida o‘zining fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo‘lishlariga qaramasdan mutlaqo farq qiladi!

– Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, – dedi Mukarram, – bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o‘lgan bo‘lsa kerak.

O‘rtoq Baqoyev biroz o‘ng‘aysizlandi.

– Sizlar qaysi Chexov to‘g‘risida gapirayotibsizlar? Choydan quy!.. Bu Chexov haqidami? To‘g‘ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o‘lgan... Boshqa ro‘molcha ber, bundan piyoz hidi kelayotipti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasi bo‘lgan Chexov haqida so‘zlayotibman.

– «Uyqu istagi» qaysi Chexovniki? – dedi Hamida.

– Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta «Sovremennik» jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o‘rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so‘zlab ketdi. Uning nima to‘g‘rida so‘zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga «sen dastyorga zor bo‘lguncha

o'g'ling dastyor bo'ladi», deb xat yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatorga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: «Agar butun jonivorlarni xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?» degan... Hamidaning boshi og'irlashib ketdi, ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi, «Uyqu istagi» to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...

*1937- yil*

## **O'JAR**

Ul tuta ot quyrug'indan,  
«Bo'l uzun soch», deb qo'ya,  
«Tek nega boshda tugul?»  
Tanqidga muhtoj deb qo'ya.

*A.To'qay*

Qutbiddinovga ovchi oshnasi ikkita tustovuq in'om qildi. Tustovuqlar tozalanib, tuzlanayotganda Qutbiddinovning fe'li aynidi, ya'ni bironta shinavanda ulfat bilan birpas dilkashlik qilgisi keldi. Uning qo'shnisi Zargarov yaqin bir oy bo'ladi, chorakam bir litr xushbo'y vinoni dumba-jigar bilan ichgani asrab yurar edi, semiz tustovuqning daragini eshitib, «Xayr, qo'y so'ysak yana vino topilar», dedi.



Bu ikki ulfat ahyonda mana shunday dilkashlik qilganlarida suhbat boshdan-oyoq ikki mavzudan chetga chiqmas edi: biri – shu ketishda shahrimiz yana ellik yildan keyin qanday bo‘lar ekan; ikkinchisi – so‘nggi vaqtlarda fan kishilarni yoshartirish to‘g‘risida nega indamay qo‘ydi?

Qutbiddinovning o‘g‘li Suyar ovqatdan keyin o‘quvchilar saroyiga ketgan edi, soat oltidan o‘tib borayotir – daragi bo‘lmadi. Shu vajdan Qutbiddinov suhbatning boshlanishida jinday tashvishmand bo‘lganidanmi, bu safar mavzu shaharning kelajagi, fanning jimib ketgani emas, bola tarbiyasi bo‘lib qoldi. Zargarovning ham o‘g‘li bor. Ikki ota hozirgi tarbiyani xo‘p maqtashdi. Zargarov uzun so‘zdan xulosa chiqarib, «men yoshligimda shunday tarbiya ko‘rgan bo‘lsam, hozir yerda turib oyda chorvachilik qilar edim», dedi.

– Men ham, – dedi Qutbiddinov, – men ham ko‘p hikmatlar ko‘rsatar edim. Lekin, birodar... Qani, ichaylik! A uf... Lekin, birodar, har yomonning bir «ammo»si bo‘lishi kerak, har yaxshining bir «lekin»i. Hozirgi tarbiya yaxshi. Hech shubhasiz, yaxshi! Lekin kamchiligi yo‘qmi? Bor, albatta bor! Masalan, bolalarga shaxmat o‘ynatishni olaylik. Bolaning miyasi shunday miyaki, chunonchi... bizning moliya tili bilan aytganda, alohida paragraf!

– Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! Kamol toping, do‘stim! Men ham xuddi mana shuni aytaman, deb turgan edim. Shundoq, do‘stim, bola deganingizning miyasi... Iye, siz nega oq ichmadingiz?

Fikrlar bir joydan chiqib, ikki tanqidchi ko‘p mamnun bo‘lishdi. Suhbat yana ham jonlanib ketdi. Hozirgi tarbiyani olib shaxmatga urildi, shaxmatni olib tarbiyaga; ikkovining ham dabdalasi chiqarildi. Qutbiddinov qadahlarni yana to‘ldirdi, vilka bilan iyagini qashlab davom etdi:

– Shaxmatning yana bir zarari shuki, agar g‘irrom odam bilan o‘ynasangiz asabingiz buziladi. O‘ttiz to‘rtinchi yilda Bobojonov bilan o‘ynagan edim, g‘irromlik qilib shohimni olib qo‘ydi. Shohimni ber, men senga bo‘lak narsa beray, desam ko‘nmadi, cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Jahlim chiqib qolgan ekan, shohsiz o‘ynay berdim, baribir qoldirdim. Shundan beri o‘ynamaydigan bo‘lib ketdim. Nima keragi bor? Xo‘sh, ana qoldirdim, nima bo‘pti?

– Shuni ayting, poyezddan qoliptimi?

Soat sakkizdan o‘tganda Suyar keldi. U eshikdan juda hovliqib kirgan edi, bularni ko‘rib, shashti qaytdi, sekin ichkarigi uyga kirib ketayotganida Zargarov ko‘rib qoldi.

– E, e, yigitcha! Qani, buyoqqa keling-chi! Ho‘, barakalla, mulla Suyar! Otasini suyarmi, onasini suyarmi, a? Yo ikkalalarini ham suyarmi?

Qutbiddinovning otalik mehri jo‘sh urib ketdi, Suyarning boshidan, yuzidan o‘pdi, quchoqladi.

– Albatta, otasini suyar-da, a, o‘g‘lim? Bizning o‘g‘il ko‘p yaxshi-da: birov bilan urishmaydi, papiros chekmaydi, onasidan otasini yaxshi ko‘radi, shaxmat o‘ynamaydi...

Suyar o‘zining quvonchini tantana bilan e‘lon qildi:

– Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada!

– E, ana endi! Ko‘p bema‘ni ish qilibsiz-da, o‘g‘lim! Shaxmat o‘ynamagin demabmidim! Qara, burningdan suv oqyapti, miyang suyulibdi!

Suyar bo‘shashib ketdi.

– Shaxmat o‘ynagandan emas, – dedi burnini artib, – kecha o‘zingiz ariqdan ko‘zoynagingizni izlatdingiz...

Qutbiddinov labini burdi.

– Ko‘zoynak izlasa burundan suv oqar emishmi? Ming la‘nat! Bor, uyga kir, darsingga qara!

Suyar ta‘bi xira bo‘lib, kirib ketdi. Qutbiddinov o‘g‘lining noqobilligidan, andishasizligidan qattiq xafa bo‘ldi. Nahot, otasi shaxmat o‘ynamagin degan bo‘lsa-yu,

o'ynasa, o'ynaganini yana, ayniqsa, mehmonning oldida bu qadar tantana bilan e'lon qilsa. Zargarov ko'p bolalar shunaqa ekanligi va Suyar eslik bola bo'lgani uchun bu xildagi qusurlarini yo'qotish qiyin emasligini aytib, ranjigan otaning ko'nglini ko'targan bo'ldi.

– Mening o'g'lim-chi, bundan ham battar. Men unga tog' injeneri bo'lgin desam, «Yo'q, dada, bilmaysiz, men uchuvchi bo'laman», deydi. Xa-xa-xa... voy, itvachchayey, men bilmas emishman!

Ikki tanqidchi bolalarning otalarga gap qaytarishlarini, otalarning so'zlarini ba'zan yerda qoldirishlarini hozirgi tarbiyada bo'lgan eng katta kamchilikning natijasi hisoblashdi va buni har kuni, har soatda ko'rib turganlari holda bunga qarshi jamoat fikrini qo'zg'aguday bir ish qilolmaganlari uchun o'zlarini ham ayblashdi.

– Men shu to'g'rida gazetaga bir maqola yozsammi deb ham o'ylagan edim, – dedi Zargarov, – lekin kelishtirolmasman deb qunt qilmadim. Chala-chulpa yozib birovning oldiga «shu to'g'rimi?» deb borgani nomus qilaman. Rostini aytsam, ellik oltiga kirib ham birovdan aql o'rganishni o'zimga ep ko'rmayman. Endi, men sizga aytсам, biz birovga aql o'rgatsak tuzuk. Nima dedingiz?

– Albatta. Lekin men ham maqola yozishga yo'qman, birodar. Endi biz-ku, o'tdik, bolalarimiz ham bizday bo'lmasin deng. Buning uchun bolalarga har xil adabiyotlardan o'qitish kerak. Bu to'g'rida ham hozirgi tarbiya o'choqlarimizning beparvoligi bor. Chunonchi, men u kuni o'g'lingizni imtihon qilib ko'rdim. Mazasi yo'q! Hatto Saltikov bilan Shchedrin degan mashhur yozuvchilarni bir-biridan farq qilolmaydi, ikkovi bitta odam deydi. Kula-kula o'libman. Sizga aytaman deb esimdan chiqibdi.

Zargarov «o'g'lim a'lochi», deb hech kimga so'z bermas edi, Qutbiddinovning bu kulgisi uni tamom o'ldirdi.

– Rosti bilan shunday dedimi? Adabiyotdan ham a'lo baho olgan edi-ku.

– Adabiyot muallimi oshnangizdir.

– Bey, Saltikov bilan kim dedingiz hali, Shchedrinmi? Shuni bilmasa men qulog'ini tagi bilan sug'urib olaman.

Qutbiddinov hamon kular edi.

– Bilmaydi, bahuzur sug'urib ola bering, azbaroyi xudo, ikkovi bir odam deydi.

Qutbiddinovning me'yordan ortiq kulgisi Zargarovning g'ashini keltirdi. Nima bo'lib, uning og'zidan «mening o'g'lim bilmasa, sening o'g'ling ham bilmaydi», degan mazmunda so'z chiqib ketdi. Qutbiddinov ham o'zining o'g'liga ishonganligi uchun Zargarovning bu bo'htoniga darrov, issig'ida zarba bergisi keldi.

– Hozir, hozir, – dedi, – Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'lim! E, yotganmiding? Mayli, bu yoqqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shchedrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

– Yo'q, siz savolni noto'g'ri qo'ydingiz, – dedi Zargarov. – Bunday: Saltikov ilgari o'lganmi, Shchedrin?

– Ikkovi bitta odam-ku! – dedi Suyar nima gap ekanini bilolmay.

Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o'rnidan turib o'yinga tushdi.

Qutbiddinov do'q urdi:

– Saltikov bilan Shchedrin-a? Kim aytdi senga?

– O'zim bilaman, kitobda bor.

– Kitobda bor? Shaxmatni ko'proq o'yna, itvachcha!

Qutbiddinov bola bechorani xo'p urishdi. Zargarov Qutbiddinovni o'larday kalaka qilib toza alamini oldi, buning ham og'irligi Suyarga tushdi. Suyar yig'lab yubordi.

– Undoq demagin, o‘g‘lim, – dedi Zargarov birpas jimlikdan keyin,– dadang bir narsa degandan keyin darrov «xo‘p, bilmabman», deyishga o‘rgan. Yaxshi emas.

– Noto‘g‘ri aytсалar-chi?

Ikki tanqidchi yalt etib bir-biriga qaradi va bu qarashda ikkovining ham ko‘nglidan bir gap o‘tdi: «Bola ham shunday o‘jar bo‘ladimi?» Suyar ichkariga kirib ketdi. Qutbiddinov ertagayoq Suyarning maktabiga borib katta g‘alva ko‘tarmoqchi bo‘ldi. Zargarov maktabdan ham ko‘ra o‘quvchilar saroyiga borishni ma‘qul ko‘rdi. Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko‘tarib chiqdi:

– Mana,– dedi portretni ko‘rsatib, – mana, Saltikov-Shchedrin!

Qutbiddinov «bu o‘jar bola hamon o‘zinikini ma‘qul qilmoqchi», deb juda g‘azablendi, ammo mehmonning oldida o‘zini tiydi. Zargarov portretning ostidagi yozuvni o‘qib, xuddi qanotli tuya ko‘rganday ajablendi va kitobni sekin Qutbiddinovning oldiga surdi. Qutbiddinov portret va uning ostidagi yozuvga uzoq tikildi, so‘ngra ko‘zoynagini sekin qulog‘idan bo‘shatar ekan:

– Him... – dedi, – Saltikov-Shchedrin! Ko‘rdingizmi, o‘sha vaqtdagi yozuvchilar ham soqol qo‘ygan ekan...

Jimlik cho‘kdi. Suyar indamay ichkariga kirib ketdi. Shu yerda hikoya ham tamom, chunki uning mantiqiy davomi g‘alaba qozongan Suyarning bu ikki tanqidchidan o‘ch olishi bo‘lar edi. Suyar buni lozim topmadi.

*1939-yil*

Sherali bilan Shahriniso bir-birini yaxshi ko‘rar edi. Lekin ikkovi ham ochiqchasiga bir nima deyoigan emas. Bir nima deyish qayoqda, daladami, qishloqdami, bir-birini ko‘rib qolsa, xuddi birov «o‘hu!» deyayotganday chuldirab qolar edi.

Oshqlikni berkitib bo‘lar emishmi?! Bularning dardini baribir hamma bilar edi. Sherali askarlikka ketayotganida kuzatgani chiqqanlar shuning uchun oradagi keraksiz pardani ko‘tara qolishdi.

Shahrinisoning o‘rtoqlari chetga tortib:

– Noz qilmay o‘l. Gaplashsang-chi, – deyishdi.

Yigitlar Sheralini turtkilashdi:

– Kim aytadi seni yigirmaga kirgan yigit deb, issiq-issiq o‘pmaysanmi...

Kuzatgani chiqqanlar o‘zlarini go‘llikka solib turishdi. Ikkovi birin-ketin bekatning orqasiga o‘tib ketdi.

Sherali daromad qilgani gap topolmay, Shahrinisoning qo‘lini ushladi.

– Mana endi biz ketayotibmiz, siz qolayotibsiz...

– Oy borib, omon keling...

– Sizga bir nima demoqchi edim.

– Ayting.

Sherali ikki-uch og‘iz rostladi-yu, inday olmadi.

Shahriniso kulib yubordi.

– Esingizga solaymi? «Yaxshi ko‘raman», demoqchi emasmikinsiz?

Sherali qip-qizarib, bir ko‘zi kichrayib ketdi. Lekin xiy-la dadil bo‘lib, uning bilagidan ushladi.

– Siz-chi? Menga qarang. Bir qarang. Siz ham yaxshi ko‘rasizmi?

Shahriniso Sheralining bilagini chimchilab:

– Boring, – dedi va do‘ppisini ko‘ziga tushirdi.

Uning bu harakati Sheralining savoliga eng yaxshi javob edi. Biroq Sherali bunga qanoat qilmas, ro'yirot «men ham sizni yaxshi ko'raman», deyishini xohlar edi. Shuning uchun gapni aylantirdi.

– Bizning-ku suratimiz sizga kerakmasdir, lekin siz suratingizni bersangiz bo'lar edi. Yo arzimaymizmi? Mumkinmi sochingizdan bir tolasini olsam? Yodgorlikka...

– Yodgorlik berganman-ku.

– Nima beribsiz?

Shahriniso arazlab burildi.

– Hali ham bilmas ekansiz-da!

– Bilmayman. Non ursin agar, bilmayman! Kechirasiz...

– Bilmasangiz bilib oling: ko'nglimni berganman!

Shahriniso qiziq ustida shunday deyishga dedi-yu, keyin uyaldi; chopqillaganicha panjaraaning orqasiga o'tib ketdi. Bu yaxshi bo'ldi, chunki Sherali uning so'ziga javoban nima deyishini, nima qilishini bilmas, nima desa va nima qilsa nazarida soxta chiqayotganday ko'rinar edi. Uning so'zini bosib tushadigan zo'r gapni xayrlashganda topib aytish umidi bilan o'ziga tasalli bergan edi, bu ham bo'lmadi. Xayrlashganda Sherali shunday bir ahvolda ediki, kuzatgani chiqqanlardan kimdir «bola bechorani muhabbat elitibdi-ku», deb qo'ydi.

Oradan yaqin ikki oy o'tib, Sheralidan xat keldi:

«Oy yuzli, shirin so'zli Shahriniso xonga. O'zinning sog'-salomatligimni bildirishlik barobarinda siz go'zal yorimning ham o'ynab-kulib yurishingizni tabiatning eng nozik joylaridan tilab qolaman.

Meni so'rasangiz, hozir harbiy lagerdaman... «Mashqda qiynalsang, urushda qiynalmaysan», degan shiorni ortig'i bilan bajarmoqdaman, pulemyotga ishqiboz bo'lib qoldim. Shuni havas bilan o'rganmoqdaman. Yana shuni bildimki,

Shahrinisoxon, agar ishlar rejali, kishi intizomli bo'lsa, bita odamning qo'lidan juda-juda ko'p ish kelar ekan. Shu tartib-intizomning to'rtidan biri zvenomizda bo'lsa, har tup g'o'zadan bahuzur bir kiyimlik paxta olishimiz mumkin ekan, deb qo'ydim. Omonlik bo'lsa qaytib borsam, butun tuman qoyil qoladigan ish qilaman...

Sizni sog'indim. Jon Shahrison, bir marta tushimga kirring. Endi qandoq qilay, ishqilib menga bergan so'zingiz chin bo'lsa – bas. O'zingiz bilasiz, sizni qanchalik yaxshi ko'rishligimni yuz foiz yozaman desam, bir gektar qog'oz ham yetmaydi. Xatingizga intizor bo'lib Sherali».

Shahriniso yozgan javobida qancha bayt-u g'azallardan keyin shunday dedi:«... Tumanni qoyil qoldiradigan ishni shu yerga kelib qiladigan bo'lsangiz, pulemyotni jo'xori qo'rigani o'rganayotgan ekansiz-da. Men shunaqa ishni urushda qilasiz degan umidda edim. Unday bo'lsa, shart qo'yaman: menga mahr berasiz, mening mahrim – yuz nemisning boshi. Meni qanchalik yaxshi ko'rishingizni bildirmoqchi bo'lsangiz bir gektar emas, to'rt enli qog'oz yetadi...»

Sherali shu shartga unab xat qaytardi...

«...Yuz nemisning boshi sizniki. Yo dong'im chiqadi, yo changim chiqadi. Endi mumkinmi biz ham bir nima desak: mahr so'ragan qiz sepi bilan keladi, sizning sepingiz nima bo'ladi? Tuman qoyil qoladigan ishni men borguncha qilish qo'lingizdan keladimi?

Sizning sepingiz shu bo'ladi».

Shahriniso nima javob berganligi kuzda ma'lum bo'ladi.

1944-yil



## MUNDARIJA

### Abdulla Qahhor

O'g'ri.....	4
Maston.....	8
Mirzo.....	17
Ikki yorti – bir butun.....	22
San'atkor.....	24
Adabiyot muallimi.....	27
O'jar.....	30
Sep.....	36

*Adabiy-badiiy nashr*

**Abdulla Qahhor**  
**O'G'RI**

*Hikoyalar*

Muharrir *Oydinniso*  
Badiiy muharrir *Murodxon Burxonov*  
Texnik muharrir *Xosiyat Hasanova*  
Musahhah *Umida Saparova*  
Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 290. 04.11.2016  
Bosishga 2019-yil 17-oktyabrda ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$  Times New Roman garniturasini.  
Ofset bosma. 2,1 shartli bosma taboq. 1,53 nashr tabog'i.  
Adadi 5000 nusxa. 256-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

*Telefon: (371) 241-25-24, 241-83-29*

*Faks: (371) 241-82-69*

**www.gglit.uz info@gglit.uz**





16+



ISBN 978-9943-5957-3-6



9943-5957-3-6